



## Yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2021- yil yanvar-iyun, dastlabki ma’lumot)

2021- yilning yanvar-iyun oylarida viloyat bo‘yicha yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchilarning o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **2380,5** ming so‘mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 14,5 %ga oshdi.

### O‘tgan yilning mos davriga nisbatan asosiy mehnat ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi

(qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

#### Korxonalar va tashkilotlar soni

**102,1 %**



#### Xodimlar soni

**101,7 %**

#### Ish haqi fondi

**118,2 %**




#### O‘rtacha ish haqi

**114,5 %**

*Ma’lumot uchun: O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi tarkibiga ish haqiga ustama, mukofot, rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to‘lovlar kiritilgan, shuningdek, uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig‘i va kasaba uyushmasiga to‘lovlar ham mavjud.*

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining**

(2021- yil yanvar-iyun, qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)






## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi, ming so'm

*(2021 yil yanvar-iyun oylari uchun, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)*




Iqtisodiy faoliyatning barcha turlarida 2020-yilning mos davriga nisbatan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'sishi kuzatildi. moliya, sug'urta faoliyatida – **5 806,1** ming so'mni, tashish va saqlash sohasida – **3 444,8** ming so'mni tashkil etdi.


### Sanoat




### Qurilish




### Tashish va saqlash




## Moliya va sug'urta faoliyati



Ta'lim



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish






## “Ta’lim” sohasi bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2021- yil yanvar-iyun, qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)


Ta’lim sohasi bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 055,8 ming so‘mni tashkil etib, 2020-yilning mos davriga nisbatan 15,1%ga oshgan.



Viloyatdagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqiga nisbatan sezilarli yuqori ko‘rsatkichlar Farg‘ona shahri - **133,3** % va Qo‘qon shahri - **109,9** % hissasiga to‘g‘ri kelgan.



O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm



Shu bilan birga, 16 ta hududda ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyat o'rtacha ko'rsatkichidan past ekanligi kuzatildi.


Viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan sezilarli past ko'rsatkichlar Furqat tumani – **98,4** %, Marg'ilon shahri - **96,6** %, Dang'ara tumani - **92,8** % Yozyovon tumani – **86,5** %, hissasiga to'g'ri kelgan.





## “Qurilish” iqtisodiy faoliyat turi bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2021- yil yanvar-iyun, qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)




Qurilish sohasi bo‘yicha bir qator hududlarda o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyatda o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko‘rsatkichlari kuzatildi. Viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko‘rsatkichlar Qo‘qon shahri – **143,7%**, Dang‘ara tumani - **168,1 %**, Farg‘ona shahri – **120,2 %**, Yozyovon – **120,6 %** hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Shu bilan birga, viloytaning 3 ta hududida ushbu sohadagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyt darajasidan past ekanligi kuzatildi.

Ish haqining nisbatan sezilarli past ko‘rsatkichlari Farg‘ona tumani - **92,9 %**, Bog‘dod tumani - **84,6 %** hissasiga to‘g‘ri keldi.

### O‘rtacha oylik ish haqi, ming so‘m





## “Savdo” iqtisodiy faoliyat turi bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2021- yil yanvar-iyun, qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

Savdo sohasi bo‘yicha bir qator hududlarda o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyatda o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko‘rsatkichlari kuzatildi.

Viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko‘rsatkichlar Farg‘ona shahri - **116,4** % hissasiga to‘g‘ri kelgan.




Shu bilan birga, viloyatning 7 ta hududida ushbu sohadagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyat darajasidan past ekanligi kuzatildi.

Ish haqining nisbatan past ko‘rsatkichlari Qo‘qon shahri - **82,2** % Toshloq tumani – **90,0** %, Oltiariq tumani - **76,2** % hamda Quva tumani - **70,3** % hissasiga to‘g‘ri keldi.

## O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm

(2021- yil yanvar-iyun, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)






## “Sanoat” iqtisodiy faoliyat turi bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

Sanoat sohasi bo‘yicha bir qator hududlarda o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyatda o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko‘rsatkichlari kuzatildi.

Viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko‘rsatkichlar Farg‘ona shahri - **104,9 %**, Toshloq tumani – **100,8 %** hissasiga to‘g‘ri kelgan.




Shu bilan birga, viloyatining 4 ta hududida ushbu sohadagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyat darajasidan past ekanligi kuzatildi.

Ish haqining nisbatan past ko‘rsatkichlari Rishton tumani – **59,1 %**, Yozyovon tumani - **62,1 %** hissasiga to‘g‘ri keldi.

## O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm

(2021- yil yanvar-iyun, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)






## “Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish” iqtisodiy faoliyat turi bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2021- yil yanvar-iyun, qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so‘m)

### O‘rtacha oylik ish haqi, ming so‘m




Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish sohasi bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko‘rsatkichlar Furqat tumani - **121,5** %, Quva tumani - **119,1** %, hamda Qo‘sh tepa tumani - **111,9** % hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Ushbu sohadagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi viloyatning **10** ta hududida o‘rtacha oylik ish haqi ko‘rsatkichidan past bo‘ldi.

Xususan, ish haqining nisbatan past ko‘rsatkichlari **Farg‘ona** tumani – **95,8** %, Bag‘dod tumani - **48,9** %, Qo‘qon shahri - **95,9** %, O‘zbekiston tumani - **88,1** %, Dang‘ara tumani – **84,2** %, hamda Oltiariq tumani – **85,6** % hissasiga to‘g‘ri kelgan.



### O‘rtacha oylik ish haqi, ming so‘m






## “Tashish va saqlash” iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2021- yil yanvar-iyun, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

Tashish va saqlash sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlari Bag'dod tumani - **100,8 %** va Farg'ona shahri – **104,9 %** kuzatildi.


O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm



Shu bilan bir qatorda, viloyatning 4 ta hududida tashish va saqlash sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi viloyat darajasidan past bo'ldi.

Tashish va saqlash sohasida viloyat ko'rsatkichidan sezilarli darajada past o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi Yozyovon tumani – 62,1 %, Quvasoy shahri -33,3 %, hamda Rishton tumanida - 59,1 % kuzatildi.

O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm








## “Moliya va sug'urta” faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2020- yil yanvar-iyun, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'm)


### O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm



Moliya va sug'urta faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan ko'rib chiqilganda eng yuqori ko'rsatkich Qo'qon shahrida – **119,8 %**ni tashkil etdi.

Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi viloyatning 6 ta hududida viloyat o'rtacha oylik ish haqi ko'rsatkichidan past bo'ldi.

Ish haqining sezilarli past ko'rsatkichlari Farg'ona shahrida - **97,2 %**, Quva tumani – **86,1%**, Buvayda tumani - **67,0 %**, va Uchko'prik tumanida – **59,7 %** hissasiga to'g'ri keldi.






## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'atlari, %da

(2021- yil yanvar-iyun, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

Viloyat bo'yicha 2021-yilning yanvar-iyun oylarida 2020 - yilning mos davriga nisbatan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda **14,7 %** ga, san'at, ko'ngil ochish va dam olishda **23,0 %** ga, ta'lim sohasida **15,1 %** ga, axborot va aloqada **10,6 %** ga bank, sug'urta faoliyatida **17,2 %** ga, o'sganligi kuzatildi, qurilishda **86,2 %** ga, sanoatda **98,1 %** ga, savdoda **85,9 %** ga kamayishi kuzatildi.

### O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining, o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati % da

(2021- yil yanvar-iyun, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)




Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori miqdori Farg'ona shahrida **3172,5** ming so'mni, Qo'qon shahrida **2616,0** ming so'mni, Quvasoy shahrida **2 088,1** ming so'mni va Marg'ilon shahrida **1974,1** ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorni Dang'ara tumanida **1802,3** ming so'mni, Farg'ona tumanida **2 041,3** ming so'mni tashkil etgan.



Farg'ona viloyati bo'yicha yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi, ming so'm

	yanvar-iyun 2020- yil	yanvar-iyun 2021- yil	O'sish sur'ati, %da
Farg'ona viloyati	2078,9	2380,5	114,5
Farg'ona	2767,0	3172,5	114,7
Qo'qon	2264,8	2616,0	115,5
Quvasoy	2026,4	2088,1	103,0
Marg'ilon	1895,5	1974,1	104,1
Oltiariq	1708,7	1676,2	98,1
Qo'shtepa	1744,8	2081,2	119,3
Bog'dod	1926,4	1873,7	97,3
Buvayda	1572,6	1920,6	122,1
Beshariq	1515,8	2472,8	163,1
Quva	1737,1	1936,2	111,5
Uchko'prik	1753,2	1859,6	106,1
Rishton	1739,8	1942,3	111,6
So'x	1817,5	1914,3	105,3
Toshloq	1934,9	2321,8	120,0
O'zbekiston	1729,8	1917,2	110,8
Farg'ona	1487,1	2041,3	137,3
Dang'ara	1578,2	1802,3	114,2
Furqat	1857,3	2401,2	129,3
Yozyovon	1875,6	2201,3	117,4

(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2020- yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq, 2021- yilning 1- fevralidan boshlab mehnatga haq to'lashning eng kam oylik miqdori **747255** so'mni tashkil etadi.

Ma'lumot uchun: "O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi" ko'rsatkichi iqtisodiyotda ish haqini baholashning uslubiy qoidalariga va xalqaro tavsiyalarga muvofiq, muayyan vaqt (soat, oy, yil) davomida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar (bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar) evaziga ish beruvchilar tomonidan amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda, soliq va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oluvchi yollanma xodimlarning mehnatiga haq to'lash tarzida jismoniy shaxslarga pul shaklida hisoblangan daromadlaridan aniqlanadi.

**Farg'ona viloyati statistikasi  
Demografiya va mehnat statistikasi  
boshqarmasi**

Tel: (73) 241-97-74, 249-87-32